



TIJORAT BANKLARINING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI

PhD Erkinxojiev Ismoiljon

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0001-8270-3348

ismoiljon.erkinkhojiev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda globallashuv sharoitida tijorat banklarining likvidliligini ta'minlash, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi rolini oshirish, milliy iqtisodiyotdagi to'lovlarning uzluksizligini ta'minlashning zaruriyati bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: kredit, transformatsiya, monetar yondashuv, bank xizmati, mobil ilovalar, bank segmenti, markaziy bank, kredit riski, majburiy zaxira siyosati.

ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЛИКВИДНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

PhD Эркинхожиев Исмоилжон

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье представлены научно-практические предложения по обеспечению ликвидности коммерческих банков в условиях современной глобализации, повышению их роли в социально-экономическом развитии страны и обеспечению непрерывности платежей в национальной экономике.

Ключевые слова: кредит, трансформация, монетарный подход, банковские услуги, мобильные приложения, банковский сегмент, центральный банк, кредитный риск, политика обязательных резервов.

PROBLEMS OF ENSURING LIQUIDITY OF COMMERCIAL BANKS

PhD Erkinkhojiev Ismoiljon

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article presents scientific and practical proposals for ensuring the liquidity of commercial banks in the context of modern globalization, increasing their role in the socio-economic development of the country and ensuring the continuity of payments in the national economy.

Keywords: credit, transformation, monetary approach, banking services, mobile applications, banking segment, central bank, credit risk, required reserve policy.

Kirish.

Bugungu kunda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan o'sish sur'atlarining sekinlashuvi tijorat banklari faoliyatiga ko'p qirrali salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, bank mijozlarining iqtisodiy va moliyaviy holati qisqa muddat ichida o'zgarib borishi, bank tizimida likvidlik darajasining pasayishi, moliya bozorlarida banklarga ishonchning zaiflashishi hamda kredit portfellari tarkibida muammoli aktivlar va zararlar ulushining keskin ortishi singari murakkab holatlar yuzaga kelmoqda. Shuningdek raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot sohalari sezilarli darajadagi moliyaviy likvidlikni talab etmoqda. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar, avvalo, tijorat banklarining likvidlik pozitsiyasini mustahkamlash, shu orqali esa bank tizimiga bo'lgan ishonchni saqlab qolish va tiklashga xizmat qiladi.

Bundan ko'rinadiki, jahonda tijorat banklari likvidligini optimallashtirishning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Jahonda global raqobat va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash zarurligining oshib borishi sharoitida tijorat banklari likvidligini optimallashtirish yo'llari tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar doirasi kengayib bormoqda. Tijorat banklari likvidligini boshqarish masalasini strategik menejment tizimida ko'rib chiqish, bank menejmentida likvidlikni optimallashtirishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish, aksiyadorlarning manfaatlari bank qiymatining uzoq muddatli va barqaror o'sishi bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash, bank kengashining likvidlikni optimallashtirish borasidagi oqilona siyosatini ishlab chiqish, uning aktivlari va passivlarini shakllantirishda o'zaro qarama-qarshi bo'lgan likvidlik-foydalilik ko'rsatkichlari o'rtasidagi oqilona nisbatni ta'minlash masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi (Sattorova, 2026).

Adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklari likvidligi, ularning to'lovga layoqatliligi kabi masalalar iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan ham keng e'tibor qaratilgan. Xususan, bankning likvidligini optimallashtirish muammosini hal qilish "likvidlik", "to'lov qobiliyati", "likvidlik xavfi" tushunchalarining mohiyati, funksiyalarining xususiyatlari, likvidlikni boshqarish vazifalari, bank likvidligiga ta'sir qiluvchi omillar to'plami, likvidlikni boshqarish usullari bilan bevosita bog'liq. Bu nazariy jihatlar mahalliy va xorijiy olimlarning qator ilmiy ishlarida ko'rib chiqilmoqda.

Taniqli iqtisodchi olim Zaxarovning fikricha, likvidlik tijorat banklari uchun depozitlarning qaytarilishiga va kreditga talabni qondirishga tayyor turish uchun muhim hisoblanadi. Ayni paytda, kutilmagan pul oqimi bilan bog'liq o'zgarishlar bank likvidligiga tahdid soladi. Lavrushin tijorat banklarining likvidligi uning moliyaviy turg'unligi va barqarorligi, shuningdek, "bankning yetarli darajadagi kapitali mavjudligi, qulay joylashtirilishi va tegishli muddatni hisobga olib, bankning aktiv va passiv mablag'lari kattaligi sifatida aniqlanadi" deb ta'kidlaydi. Leonard likvidlikni bankning "hayotiyli"ni saqlab turuvchi mexanizm sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, likvidlikni samarali boshqarish bankni shok holatlaridan himoya qiladi va uning bozordagi nufuzini saqlab qoladi. Sara Yasar esa likvidlikni bank risk-menejmenti bilan uzviy bog'liq holda ko'radi. U likvidlik yetishmasligi ko'p hollarda aktiv muddat disbalansi va aktivlar sifatining pasayishi natijasida yuzaga kelishini ta'kidlaydi.

Tijorat banklari likvidligini boshqarish masalalari xorijlik iqtisodchi olimlardan Zaxarov, Ivanov, Lavrushin, Larionova, Levina, Tenlar, Samoylov, Rous, Sinki, Rodjer Miller, Devid Van-Xuz, Djonson, Matz Leonard, Frast Stiven, Harm, Koch Timothy, Philippe Jorion, Sara Yasar, George Kladaislarning ilmiy tadqiqotlaridan o'rin olgan.

Bank likvidligini ta'minlashning zamonaviy yondashuvlari o'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Abdullayeva, Berdiyarov, Izbosarov, Omonov, Sattorov, Gadoyev, Abdullayevning ilmiy ishlarida tijorat banklari likvidligini boshqarishning ayrim nazariy va amaliy jihatlarini o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasining asosini tijorat banklarining likvidliligini ta'minlash masalalari bo'yicha tadqiqot olib borgan yetakchi mahalliy va xorijiy iqtisodchilarning ishlari tashkil etadi. Nazariy kuzatish, ilmiy abstraksiya va qiyosiy tahlil, statistik, monografik kuzatuv va boshqa tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Global siyosatdagi joriy tendensiyalar natijasida moliyaviy barqarorlik bilan bog'liq transmilliy risklarning avj olib borayotganligi, shuningdek, o'tgan davrlarda kuzatilgan global moliyaviy inqirozlar markaziy banklar oldiga makroprudensial siyosatni takomillashtirish vazifasini qo'ydi. Jahon miqyosida banklararo likvidlik oqimlari, tizimli ahamiyatga ega bo'lgan banklarning xavf darajasini baholash va xatarlarni oldindan aniqlash bo'yicha yondashuvlar va chora-tadbirlar kuchaytirilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, bank tizimidagi turli risklarni aniqlash va ularning o'zaro ta'sirini baholash, xususan makroiqtisodiy risklarning banklar faoliyatiga ta'sirini chuqur o'rganish tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozimligini taqozo etadi. Shu jumladan, Markaziy bank ilg'or texnologiyalarning banklarga kirib kelishi bilan raqamli bank xizmatlari turlari va ko'lami kengayib borishi sharoitida raqamli moliya ekotizimi bilan bog'liq xavflarni aniqlash va boshqarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish nuqtai nazaridan mazkur yo'nalishda tadqiqotlar olib borishi zarur. Tadqiqotlarda prudensial normalarga oid ko'rsatkichlarni boshqarish, xatarli vaziyatlarda banklarning kapital va likvidlik talablarini moslashuvchan tartibga solish orqali moliyaviy barqarorlikni saqlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Jahon miqyosida moliya bozori yangi biznes modellari va raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan tarkibiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Raqamli bank xizmatlari zamonaviy moliya tizimida muhim o'rin egallab, mijozlarga qulay va tezkor moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inqilobiy o'zgarishlarni olib kelmoqda. Ushbu xizmatlar nafaqat mijozlarning moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olinganlik darajasining ortishiga, balki banklarning operasion samaradorligini va moliyaviy savodxonlikni oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Raqamli bank xizmatlari mijozlarga istalgan vaqtda va istalgan joyda xizmatlardan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi, xususan, internet va mobil qurilmalar yordamida bank hisoblarini boshqarish, to'lovlarni amalga oshirish va kreditlar olish jarayonlari soddalashtirilgan (Markaziy bank, 2025).

2025 yil 1 iyul holatiga ko'ra, likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (LCR) tizimli ahamiyatga molik banklar bo'yicha yillik hisobda 28 foiz bandga ortib, 172 foizni tashkil etgan va bank tizimi medianasidan pastda joylashgan. Bank tizimi va tizimli ahamiyatga molik banklar bo'yicha sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyentlari (NSFR) interkvartil oraliqning quyi chegarasi yaqinida shakllangan. Shuningdek yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati 18 foizni tashkil etib, 2024 yilning mos holatiga nisbatan 4 foiz bandga oshdi. Bunda, kassadagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari, shuningdek banklarning Markaziy bankdagi mablag'lari mos ravishda yillik hisobda 30 va 51 foizga o'sganligi yuqori likvidli aktivlarni oshiruvchi asosiy omillardan bo'ldi. Jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmining YAIMga nisbati mos ravishda 12 va 24 foizlarni tashkil etgan. Chakana kreditlari jami bank kreditlarining 34 foizini tashkil etib, 2024 yilning mos davriga nisbatan 2 foiz bandga ortgan.


Global miqyosda kuzatilayotgan geosiyosiy keskinliklar hamda O'zbekiston moliya sektorida bank tizimining salmog'i yuqoriligi banklarning tizimli xatarlarga bardoshlilikini baholashning dolzarbligini oshirmoqda. Banklarning buxgalteriya balansidagi statistik ma'lumotlarga asoslangan tahlil retrospektiv bo'lib, iqtisodiy shoklar sharoitida yuzaga keladigan tizimli xatarlarni to'liq yoritib olmasligi mumkin. Tizimli shartli talablar tahlili (Contingent Claims Analysis, CCA) esa banklarning balans va bozor ma'lumotlaridan

foydalangan holda har bir bankning defolt ehtimolligi, kutilayotgan yo'qotishlar hamda ushbu yo'qotishlardan foydalangan holda bank tizimining umumiy zaifliklari baholanadi.

Tizimli CCA modeli faqatgina alohida banklarning xatarlari yig'indisini emas, balki ular orasidagi o'zaro bog'liqlik natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qo'shimcha tizimli xatarlarni ham inobatga oladi. Natijada, butun moliya tizimining xatar darajasi individual xatarlar yig'indisidan yuqori bo'lishi mumkin. Ushbu model bank aktivlarining individual kutilayotgan yo'qotishlarni birlashtiradi. Bunda, Ekstremal qiymatlar nazariyasining (Extreme Value Theory, EVT) statistik usulidan foydalangan holda moliyaviy stress sharoitida bir nechta bankning bir vaqtda inqirozga uchrash ehtimolligidagi yo'qotishlar aniqlanadi.

O'zbekiston bank tizimi uchun qo'llanilgan SSA model natijalariga ko'ra, tanlab olingan uchta tizimli ahamiyatga molik banklar bo'yicha defoltgacha bo'lgan masofaning (Distance-to-Default) qisqarishi banklardagi defolt bo'lish ehtimolligining pasayishida o'z ifodasini topgan. Xususan, tahlil qilingan banklar bo'yicha model orqali baholangan defolt ehtimolligining oddiy arifmetik o'rtacha qiymati 2025 yil I yarim yilligi yakuni bo'yicha 34 foizda shakllanib, 2024 yilning 1 iyul holatiga nisbatan 41 foiz bandga kamaygan (Markaziy bank, 2025).


Tahlil qilingan tizimli ahamiyatga molik banklar orasida aktivlarning baholangan qiymati va belgilangan xatar chegarasidan kelib chiqib baholangan defoltgacha bo'lgan masofaning musbat shakllanishi natijasida defolt ehtimoli 50 foizdan pasaygan. Tanlab olingan tizimli ahamiyatga molik banklardagi defolt ehtimolining sezilarli pasayishi hisobiga ushbu banklardagi umumiy kutilayotgan yo'qotishlar miqdori 2025 yil yarim yilligi yakunida 2024 yilning mos davriga nisbatan 80 foizga qisqargan (1-rasm).



1-rasm. Bank tizimi aktivlari bo'yicha eng xatarli holatidagi yo'qotishlarning bank tizimi aktivlaridagi ulushi

Moliya tizimida nobank moliya sektori kichik ulushni tashkil etmoqda. 2025 yilning yarim yilligida nobank moliya sektori aktivlarining YalMdagi ulushi 1,8 foizni tashkil etib, 2024 yilning mos davriga nisbatan 0,3 foiz bandga ortgan. Nobank moliya sektorining eng katta qismini tashkil etuvchi sug'urta sektori daromadliligining pasayishiga qaramay, sug'urta tashkilotlarining operatsion samaradorligi hamda sug'urta xizmatlari ommalashish darajasi ortib bormoqda. Shuningdek, mikromoliya tashkilotlari aktivlarining o'sishi ta'sirida kapital yetarlilik ko'rsatkichi tushgan bo'lsada, minimal chegaradan yuqori shakllangan. Bundan tashqari, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotining daromadlilik darajasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

2021–2025yillar mobaynida bank tizimi likvidlilik ko'rsatkichlari o'zgaruvchan bo'lgan. Yuqori likvidli aktivlar ulushi 14,2 %dan 19,4 %gacha oshib, 2025-yilda 17,3 %ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. LCR har doim me'yor(100 %)dan yuqorida bo'lib, 2021-yilda 224,5 % bilan maksimal darajaga chiqqan. NSFR esa nisbatan barqaror bo'lib, 109,9–115,6 % oralig'ida bo'lgan. Bunday likvidlilik ko'rsatkichlari umumiy me'yorlarga mos bo'lganini, biroq ularning dinamikasi notekis ekanini ko'rish mumkin. Aynan shu holat likvidlikni statik emas, balki real vaqtda va optimallashtirilgan boshqaruv asosida tashkil etish zaruratini yuzaga keltiradi (2-rasm).



2-rasm. Tijorat banklarining likvidlik ko'rsatkichlari

2021–2025-yillar davomida bank tizimi likvidlilik ko'rsatkichlari o'zgaruvchan bo'lgan. Yuqori likvidli aktivlar ulushi 14,2 %dan 19,4 %gacha oshib, 2025-yilda 17,3 %ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. LCR har doim me'yor(100 %)dan yuqorida bo'lib, 2021-yilda 224,5 % bilan maksimal darajaga chiqqan. NSFR esa nisbatan barqaror bo'lib, 109,9–115,6 % oralig'ida bo'lgan. Bunday likvidlilik ko'rsatkichlari umumiy me'yorlarga mos bo'lganini, biroq ularning dinamikasi notekis ekanini ko'rish mumkin (Sattorova, 2026).

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining likvidliligini ta'minlash masalalari har tomonlama yondashuvni talab qiladi. Ya'ni:

- Tijorat banklarda likvidlilikning kamayishi, avvalo, bankning mijozlarga kredit ajratish imkoniyatini cheklanishi va pul majburiyatlaridan kelib chiquvchi aktiv operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini yo'qotishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham faol aktiv siyosatni yuritish salohiyatiga ega bo'lmagan tijorat bankini to'liq likvid hisoblash mumkin emas.

- Tahlillarga ko'ra, likvidlilikni ta'minlashda banklararo kreditlardan foydalanishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq emas. Chunki bunday kreditlar hajmi oshishi foizli xarajatlarning sezilarli darajada ko'payishiga, bu esa o'z navbatida, sof foizli marja darajasi pasayishiga olib keladi.

- Tijorat banklarining likvidliligini samarali boshqarish muammosini bartaraf etish maqsadida quyidagi strategik yo'nalishlar tavsiya etiladi: aktivlarni boshqarish orqali likvidlilikni ta'minlash, ya'ni likvid mablag'larni aktivlar tarkibidan shakllantirish orqali

barqarorlikni ta'minlash; passivlarni boshqarish strategiyasi, ya'ni likvidlikka ehtiyojni asosan qarz mablag'lar va jalb qilingan resurslar hisobiga qondirish orqali ta'minlash; aktiv va passivlarni muvofiqlashtirilgan tarzda boshqarish, ya'ni bank resurslari va majburiyatlari o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash orqali likvidlikni barqaror darajada saqlab turish.

- Tijorat banklari likvidligini ta'minlashda markaziy bank va banklar o'rtasida, shuningdek, tijorat banklarining o'zaro hamkorligi asosida valyuta svop operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Markaziy bank likvidlikni tartibga solishning ilg'or vositasi sifatida banklar bilan o'zaro svop kelishuvlarini kengaytirish zarur.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abbott, M. (2025) *Top 10 Trends for Banking in 2025 -The Future Is Back*. Forbes. Available at: <https://www.forbes.com/sites>

Basel Committee on Banking Supervision (2021) *Operational Risk –Supervisory Guidelines for the Advanced Measurement Approaches*. Available at: <http://www.bis.org/publ/bcbs196.pdf>.

Cucinelli, Doriana. (2022). *The Impact of Non-performing Loans on Bank Lending Behavior: Evidence from the Italian Banking Sector*. Eurasian Journal of Business and Economics 16: 59–71. <https://www.mdpi.com/1911-8074/17/5/203#B7-jrfm-17-00203>

Deutsche Bank (2023) *Risk Appetite and Capacity*. Available at: <https://annualreport.deutsche-bank.com/2017/ar/risk-report/risk-and-capital-framework/risk-appetite-and-capacity.html>.

Fonseca, Ana Rosa, and Francisco González. (2022). *Cross-country determinants of bank income smoothing by managing loan-loss provisions*. Journal of Banking & Finance 32: 217–28. <https://www.mdpi.com/1911-8074/17/5/203#B8-jrfm-17-00203>

Lee, Yum, and Sok-Tae Kim. (2021). *A Study on Factors Affecting the Non-performing Loans in Chinese Commercial Banks*. International Commerce and Information Review 22: 93–113. <https://www.mdpi.com/93-113/17/5/203#B15-jrfm-11-00203>

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Available at: <https://cbu.uz/uz/financial-stability>

Sattorova.N.G.(2026). *Tijorat banklari likvidligini optimallashtirish yo'llari*. Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.Toshkent: 67b. Available at: https://library.ziynet.uz/ru?category_id=20&page=1

Schneider, L. (2023) *The State of Risk Oversight: An Overview of Enterprise Risk Management Practices*. ERM NC State. Available at: <https://erm.ncsu.edu/resource-center/2023-risk-oversight-report-erm-ncstate-lp/>.

Shodiyeva G. (2022). "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'rni" Academic Research in Educational Sciences, Volume 3, Issue 5, 2022 Page 611.